

MA'MURIY ISHLARNING SUDGA TAALUQLILIGI VA SUDLOVGA TEGISHLILIK

Jo'rayeva Hulkaroy Tavakkal qizi

*Namangan davlat Universiteti Yuridik fakulteti 2-bosqich
YU-HU-24-guruh talabasi jorayevhulkaroy@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ma'muriy ishlarning sudga taalluqliligi xususan sudlovga tegishlilik tushunchasi va uning ahamiyati keng ochib beriladi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ish yuritish to'g'risidagi qonunning normalariga tayangan holda ma'muriy nizolarni ko'rib chiqishda sudlarning vakolat doirasi, ishlarning qaysi sudga taalluqli ekanligi va ularning hududiy hamda instansiyaviy tegishli masalalari yoritiladi. Xususan ma'muriy ishlarning boshqa turdagi sud ishlaridan fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqolada sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik institutlarining amaliy qo'llanishi, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham yo'llari ham ilmiy nazariy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ma'muriy sudlov, sudga taalluqlilik, ma'muriy ishlar, hududiy tegishlilik, sud huquqini himoya qilish, sud vakolati, turdosh yoki predmetli tegishlilik, instansiyaviy tegishlilik, protsessual normalar, sud tizimi.*

Аннотация: *В данной статье широко рассматривается понятие юрисдикции административных дел, в частности, юрисдикция, и её значение. Также, на основе норм Закона Республики Узбекистан об административном судопроизводстве, освещается сфера юрисдикции судов при рассмотрении административных споров, юрисдикция дел, а также их территориальные и процессуальные вопросы. В частности, раскрывается важность административных дел в восстановлении нарушенных прав граждан и юридических лиц из других видов судебного разбирательства. В статье дается научно-теоретическое обоснование практического применения институтов юрисдикции и подсудности, существующих проблем и путей их устранения.*

Ключевые слова: *Административное правосудие, юрисдикция, административные дела, территориальная юрисдикция, защита судебных прав, судебная власть, предметная или субъектная юрисдикция, процессуальная юрисдикция, процессуальные нормы, судебная система.*

Abstract: *This article broadly explains the concept of jurisdiction of administrative cases, in particular, jurisdiction, and its significance. Also, based on the norms of the Law of the Republic of Uzbekistan on Administrative Court Proceedings, the scope of jurisdiction of courts in considering administrative disputes, the jurisdiction of cases, and their territorial and instance-related issues are highlighted. In particular, the importance of administrative cases in restoring the violated rights of citizens and legal entities from other types of judicial proceedings is revealed. The article provides a scientific and theoretical justification of the practical application of the institutions of jurisdiction and jurisdiction, existing problems and ways to eliminate them.*

Keywords: *Administrative justice, jurisdiction, administrative cases, territorial jurisdiction, protection of judicial rights, judicial authority, related or subject-related jurisdiction, instance-related jurisdiction, procedural norms, judicial system.*

KIRISH

Mamlakatimizda sud-huquq sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmuni sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish sudlar faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan ham sud hokimyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash, shuningdek odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud huquq tizimini yanada isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasiga muvofiq jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sudda qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmaydi. Sudda ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab beriladi.³²

Shuningdek "Inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi" Konvensiyaning 6-moddasiga hamda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi" xalqaro paktning 14-moddasiga muvofiq, Har kim qonun va sud oldida tengdir; har kim o'zining fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilashda yoki unga qo'yilgan har qanday jinoiy ayblovni qonunda belgilangan vakolatli, mustaqil va xolis sud tomonidan oqilona vaqt ichida adolatli ko'rib chiqilishi huquqiga ega. Jinoyat ishlarining sudga tegishliligi jinoiy odil sudlovni amalga oshiruvchi organlar tomonidan ularni ko'rib chiqilishining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi.³³

Muhokama va natijalar

Shu o'rinda Ma'muriy ishlarining sudga taalluqliligi va sudga tegishliligi O'zbekiston Respublikasi "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks"ning 26-moddasiga ko'ra Ma'muriy sudga fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlar taalluqlidir, bundan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga, iqtisodiy sudlarga va harbiy sudlarga taalluqli ishlar mustasno.

Qonun bilan ma'muriy sudga taalluqli ishlar jumlasiga boshqa ishlar ham kiritilishi mumkin.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, ma'muriy sud o'ziga taalluqli ishlarni fuqarolar, yuridik shaxslar va ma'muriy organlar, shuningdek o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirayotgan chet el yuridik shaxslari, xalqaro tashkilotlar, chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokida ko'radi.

1. ³² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.(2023-yil 30-aprel)

2. ³³ Inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi Konvensiya.

3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.(1966)

Hamda ushbu kodeksning 27-moddasiga ko'ra sud tomonidan hal etiladigan ishlar quyidagilardan iborat:

1) idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

2) mahalliy davlat hokimiyati organlarining, davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning (bundan buyon matnda ma'muriy organlar deb yuritiladi), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining va ular mansabdor shaxslarining qonunchilikka mos kelmaydigan hamda fuqarolar yoki yuridik shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzadigan qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

3) saylov komissiyalarining, referendum o'tkazuvchi komissiyalarning xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

4) notarial harakatni amalga oshirish, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozishni ro'yxatga olish rad etilganligi yoki notariusning yoxud fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi;

5) davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etish yoxud belgilangan muddatda davlat ro'yxatidan o'tkazishdan bo'yin tovlash ustidan shikoyat qilish to'g'risidagi;

6) ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan talablar bo'yicha undirish so'zsiz tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjat ustidan shikoyat qilish.

Hamda ushbu kodeksning 28-moddasiga ko'ra Ishlarning sudlovga tegishliligi: Sudga taalluqli ishlar tumanlararo ma'muriy sudlar tomonidan ko'riladi, bundan Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudloviga tegishli ishlar mustasno.

Investitsiya nizolari bo'yicha yirik investorning, raqobat to'g'risidagi ishlar bo'yicha tomonlarning xohishiga ko'ra ushbu toifadagi ishlar bevosita O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan, qolgan investitsiyaviy nizolar investorning xohishiga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari tomonidan birinchi instansiya sudi sifatida ko'rib chiqiladi.

Shu o'rinda sudlovga taalluqlilikni ikki xil ma'noda tushunish mumkin;

-ayrim jinoyat ishlarining ko'rilishi va hal qilinishi sud organlariga taalluqli (tegishli) bo'lishi;

-sudlovga tegishlilik yagona sud tizimiga kiradigan umumiy yurisdiksiya sudlarining qaysi biri jinoyat ishlarini ko'rish va hal qilish vakolatiga egalikni bildiradi.³⁴

Masalan, O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligiga muvofiq Jinoyat kodeksi 97-moddasining ikkinchi qismida, 118-moddasining to'rtinchi qismida, 150,153,155,157,158 moddalarida, 159-moddasining uchinchi va to'rtinchi qismlarida,

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksi (2018)

230,231,242,244-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar Qoraqalpog'iston Respublikasi sudining, viloyatlar, Toshkent shahar sudining sudloviga tegishlidir.³⁵

Mazkur masalada qonun chiqaruvchining irodasi agar bir sudda ko'rib chiqilayotgan jinoyat ishi bo'yicha sud muhokamasi paytida sudlanuvchi tomonidan boshqa sud sudloviga tegishli jinoyat sodir etilganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, ishni ko'rib chiqish sud muhokamasini boshlangan sud tomonidan davom ettirish ifoda etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, sudlovga tegishlilik sud organlariga tegishli bo'lgan jinoyat ishlarining mazmuniga ko'ra sud instansiyalari o'rtasida taqsimlanishi, shuningdek hududiy yoki shaxsga ko'ra mazkur jinoyat ishlarining aynan qaysi sudga taalluqliligi bo'lishini bildiradi.

Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning normalariga asosan, odatda ma'muriy ishlar javobgar joylashgan hududdagi ma'muriy sudda ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ayrim hollarda da'vogarning tanlovi asosida ham sud tanlash imkoniyati beriladi, bu esa fuqarolarning huquqlarini yanada kengroq himoya qilishga xizmat qiladi.

Amaliyotda esa ayrim muammolar kuzatiladi. Xususan:

ma'muriy ishlarning boshqa sud turlaridan (fuqarolik yoki iqtisodiy sudlardan) aniq ajratilmasligi;

sudga taalluqlilikni noto'g'ri belgilash natijasida ishlarning bir suddan boshqasiga o'tkazilishi;

fuqarolarning protsessual bilimlari yetarli emasligi sababli noto'g'ri sudga murojaat qilinishi.

Bu holatlar sud ish yuritish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Qonunchilikni aniqlashtirish-Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksida ma'muriy ishlarning sudga taalluqliligini yanada aniqroq belgilovchi normalarni kiritish zarur. Sud amaliyotini umumlashtirish-oliy sud organlari tomonidan sudga taalluqli va tegishlilik masalalari bo'yicha tushuntirishlar berib borilishi lozim.

Elektron sud tizimini rivojlantirish-ariza topshirishda avtomatik ravishda tegishli sudni aniqlovchi tizimni joriy etish samaradorlikni oshiradi.³⁶

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy ishlarning sudga taalluqliligi va sudlovga tegishlilik institutlari ma'muriy sudlov tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu institutlar orqali ma'muriy nizolarni to'g'ri sudga yo'naltirish, ishlarni vakolatli sud tomonidan ko'rib chiqish hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini samarali tiklash ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ish yuritish to'g'risidagi kodeksi bu borada aniq huquqiy asos yaratib bergan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, sudga taalluqlilikni to'g'ri aniqlamaslik, turli sudlar o'rtasida vakolatlar chegarasining yetarlicha aniqlashtirilmaganligi hamda fuqarolarning protsessual bilim darajasi pastligi sud ish yuritish samaradorligiga salbiy

³⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.

³⁶ Xolmo'minov J, Usmonov A, Ma'muriy huquq. – Toshkent:(2020)

ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois mazkur institutlarni yanada takomillashtirish, sud amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish va qonunchilikni aniqlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Umuman olganda, sudga taalluqlilik va sudlovga tegishlilik masalalarining to'g'ri hal etilishi sudlovning adolatli, oshkora va samarali amalga oshirilishini ta'minlab, huquq ustuvorligini mustahkamlash hamda jamiyatda qonuniylikni qaror toptirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.(2023-yil 30-aprel)
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksi (2018)
4. O'zbekiston Respublikasi Sudlar to'g'risidagi qunun(2021)
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari (ma'muriy sudlovga oid tushuntirishlar,
6. Xolmo'minov J, Usmonov A, Ma'muriy huquq. – Toshkent:(2020)
7. Inson huquqlari va erkinliklari to'g'risidagi Konvensiya.
8. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.(1966)